

Surxondaryoda yer silkinishi qayd etildi



Surxondaryoda yer silkinishi qayd etildi

FVV Seysmoprognoztik monitoring respublika markazi xabariga ko'ra, (https://t.me/rcsm_fvv/617) 10 yanvar kuni O'zbekiston hududida mahalliy vaqt bilan soat 02:41 da yer silkinishi zilzila sodir bo'ldi.

Epitsentr: Surxondaryo viloyati, Boysun tumani. Yer silkinishi koordinatalari: 38,38 gradus shimoliy kenglik; 67,43 gradus sharqiy uzunlik.

Magnituda $M=4,4$. Chuqurlik 15 km. Yer silkinishi epitsentri Toshkentdan 355 km janubiy-g'arbda.

O'zbekiston hududida sezilish kuchi:

■ Oltinsoy tumanida 3 ball, 34 km;

- Denov tumanida 3 ball, 35 km;
- Boysun tumanida 3 ball, 36 km;
- Sariosiyo tumanida 2-3 ball, 50 km;
- Qumqo'rg'on tumanida 2 ball, 57 km;
- Sho'rchi tumanida 2 ball, 61 km;
- Bandixon tumanida 2 ball, 63 km;
- Qamashi tumanida 2 ball, 65 km;
- Uzun tumanida 2 ball, 70 km;
- Dehqonobod tumanida 2 ball, 71 km;
- Shahrisabz tumanida 2 ball, 71 km.